

ABDULLA QODIRIYNING “SHODMARG” HIKOYASIGA CHIZGILAR

*Ravshanjonova Sitora Jahongir qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiri o`tkir qalami mahsuli bo`lgan “Shodmarg” hikoyasi tahlil qilinadi. Tahlil davomida hikoyada tasvirlangan davr ijtimoiy-siyosiy ahvoli, xalqning ozodlik va hurriyatga intilishi va bu yo`lda ular duch kelgan qiyinchiliklar, muammolarning yechimi kabi masalalar e’tiborga olingan.

Kalit so`zlar: Abdulla Qodiri, hikoya, “Shodmarg”, hurriyat, Mulla Karim hoji, o`lim, erkinlik.

ЭСКИЗЫ К РАССКАЗУ АБДУЛЛЫ КАДИРИ “ШОДМАРГ”

Равшанджонова Ситора Джахангир кизи

Студентка Чирчикского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье анализируется рассказ “Шодмарг”, написанный основоположником узбекского романа Абдуллой Кадири. В ходе анализа учитывалась общественно-политическая ситуация описываемого в рассказе периода, стремление людей к свободе и свободе, трудности, с которыми они сталкивались на пути, пути решения проблем.

Ключевые слова: Абдулла Кадири, история, свобода, Мулла Карим хаджи, смерть, свобода.

SKETCHES FOR ABDULLA QADIRI'S STORY “SHODMARG”

Ravshanjonova Sitora Jahangir kizi
Student of Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This article analyzes the story “Shodmarg” written by Abdulla Qadiri, the founder of Uzbek novels. During the analysis, the socio-political situation of the period described in the story, the people’s desire for freedom and freedom, the difficulties they faced along the way, and the solutions to the problems were taken into account.

Key words: Abdulla Qadiri, story, “Shodmarg”, freedom, Mulla Karim haji, death, freedom.

O`zbek tarixiy romanchiligining asoschisi, yoshligidanoq Sharq va G`arb madaniyati, adabiyoti ruhida tarbiyalangan, arab, fors, rus va turkey tillarni puxta

bilgan, turk milliy adabiyotining o`sha davrdagi mashhur yozuvchilari ijodi bilan yaxshi tanish bo`lgan ijodkor Abdulla Qodiriy [1; 212] o`zbek adabiyotining ko`zga ko`ringan vakillaridan biridir. Ham hayotiy, ham ijodiy faoliyati bilan xalq xizmatiga kirishgan ijodkor umri davomida erkinlikni, ma`rifatparvarlikni kuylab o`tdi. Yozuvchi yozgan asarlari bilan millatning har bir vakilini tafakkur egasiga aylantirishga harakat qildi. Uning niyati mudragan, quroq bosgan qalblarni uyg`otish, millatning ko`zini ochish bo`lgan. Shu maqsadda ko`plab asarlar yozildi, ammo millat vakillari ularni yashirin tarzda o`qishga majbur bo`ldi. Garchi ma`rifatparvarlikka chorlovchi gazeta va jurnallar nashri ancha ildamlagan bo`lsa-da, ularning obunachilari va tahririyatga bo`lgan tazyiq kun sayin ortib boravergan. Ayni mana shunday pallada Qodiriy erk va hurriyatni kuylagan hikoyalardan biri –“Shodmarg” ni “Najot” gazetasida chop ettirdi [2; 33].

Muallifning bu hikoyasi hajman kichik. Odatda, adibning ikki romani, hajviya va hikoyalari atroflicha tahlil qilingan, ular haqida turli maqola, risola va kitoblar ham nashr etilgan. Ammo ushbu hajman kichik hikoya tahliliga deyarli to`xtalinmagan. Shu sababdan qodiriyyunoslik tarixida hikoyaning tahlil va talqinlari, unga munosabatlar yo`q hisobi. Ushbu hikoya o`lim hodisasi bilan yakunlanadi, ammo bu xotima o`quvchini xafa qilmaydi. Sababi – ijtimoiy quvonch, surur. Ya`ni asar bosh qahramoni shodligi tufayli vafot etadi, uzoq yillar davom etgan erksizlikka barham berilganidan xursand bo`lib hayot bilan omonatini topshiradi. Hikoya syujetiga qisqacha to`xtilib o`tamiz [3; 230]. Hikoya bosh qahramon Mulla Karim hojining ahvoli, dunyoqarashi, toppish-tutishi, boy-kambag`alligi haqidagi fikr va ma`lumotlar bilan boshlanadi. Qahramonimizning moddiy va ma`naviy ahvoli juda yaxshi, ammo u hayoti davomida ko`plab qiyinchilik va mashaqqatlarga duch keladi. Buning sababi esa dunyoqarashining ochiqligi, fikr-mulohazalarining to`g`riliqi. Atrofda bo`layotgan voqealarni tushungan, aql tarozisida tortib,adolat chig`irig`idan o`tkazib ko`rvuchi odamga hamisha qiyin bo`lgan. Vijdoni pok, g`ururi bor inson qabihliklarni, jaholatni ko`rib turib jim tura olmaydi. Ayniqsa, xatmi kutub qilgan, din-u diyonatdan xabardor bo`lgan Mulla Karim hojining razolatga indamaygina bosh egishi nihoyatda mushkul ish. Bu borada adib o`z dardlarini qahramoni vositasida gavdalantirgan, qalbidagi hasratlarini qahramoni qalbiga ko`chirgan. Chor hukumi davrida to`g`riso`zligi natijasida qamalgan Mulla Karim hoji o`z haqgo`yligidan hech qachon qaytmaydi. O`n besh yillik surgun jazosi tugaganidan so`ng jamoat ishlariga aralashmaslik sharti bilan oila davrasiga qaytadi. Ammo bir marta pristavga egilib ta`zim qilmaganligi uchun yana uch oy turmada yotadi. Shundan so`ng “xoinlar, zolimlar, zolim yordamchilari” [2; 34] haqida hech qayerda hech narsa demaydi. Qirq yoshlarida (umrining eng sermahsul pallasida) siyosatga aralashganligi uchun qamalgan qahramonimiz asar oxirida yoshi yetmishlarga borgan holda tasvirlanadi. Garchi siyosatga aralashmaslikka qaror qilgan bo`lsa-da, xalq holiga achinish iztirobi uning qalbini tinch

qo`ymaydi. O`g`illari kunora bozordan yangi xabarlarni topib kelaveradi. Mulla Karim hoji esa ularni jon qulog`i bilan eshitib, qalban chuqur tahlil qiladi. Shunday kunlarning birida o`g`li otasidan suyunchi so`rab keladi: “Suyunchi bering, ota! Xalq va askar bir bo`lib, hukumatni o`rnidan tushurgan, hamma ish xalq qo`liga o`tkan, eski hukumat ma`murlari o`rnidan tushurilib, qo`lga oling`an, ministrlar ham hibs etilg`an, podsho ham qamalg`an, hurriyat e`lon qiling`an” [2; 36], deb aytadi. O`g`lidan bu quvonchli xabarni eshitgan ota mammun bo`ladi, quvonadi, shodlanadi. Ayni mana shu shodlik tufayli shodmarg (shodlik tufayli o`lmoq) [2; 37] bo`ladi. Hurriyat keltiradigan shodlik, hurriyatga, erk va ozodlikka, zolimlar zulmidan erkin yashashga tashnalik ifodasini adib qalami shunday ifodalaydi.

Abdulla Qodiriy asarlaridagi obrazlar o`zining haqgo`yligi, rost so`zlaganligi tufayli mana shunday og`ir jabr-u jafolarga, qiyinchiliklarga dush kelgan olivjanob va yuksak maqsadlar yo`lidan yuradigan hamda bu yo`ldan hech qachon qaytmaydigan chinakam qahramonlardir. Adib XX asr boshlarida yurtimiz tarixida bo`lib o`tgan siyosiy o`zgarishlarga katta umid bilan qaradi. Uning bu kayfiyati asarlaridagi Mulla Karim kabi obrazlarga ham ko`chib o`tdi. Mulla Karim hoji haqiqatni so`zlagani uchun naqadar mashaqqatlarga duch kelgan, o`z atrofidagi manfur, mansabparast, johil kimsalar chaquvi bilan zindonband qilingan bo`lsa, Abdulla Qodiriy ham xuddi shunday taqdir yo`lini bosib o`tdi. Gohida ulkan qalb egalari o`z asarlarida o`zlari bilmagan holatda o`z kelajaklari haqidagi bashoratlarni yozishadi.

Shaklan o`zgargan, ammo mazmunan saqlanib qolning bosqichlik siyosatining qurbanlaridan biriga aylangan adib siyosat haqida gapirib bo`lmaydigan bir zamonda siyosatdagi kirdikorlarni ochiqchasiga fosh qilgan asarlar yozdi va shu sababdan yosh umri xazon bo`ldi. Ammo uning asarlari, qilgan mehnatlari zoye ketmadi, o`zining tarixiy missiyasini a`lo darajada bajardi. Bugungi kunda ham ushbu ijod mahsuli orqali davr muhitini, uning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotidagi kamchiliklarni ko`rib tahlil qilishimiz va xulosalar chiqarishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Matchonov S., Sariyev Sh. Adabiyot. – T.: “Yurist-media markazi”, 2010-yil. – 368 b.
2. Karimov B. Jadidlar. Abdulla Qodiriy [Matn]: risola. /. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 160 b.
3. Abdulla Qodiriy. To`la asarlar to`plami (Olti jildlik), 1-jild. – T.: “Fan”, 1995-yil. – 296 b.
4. Abdulla Qodiriy. 20-yillar maqolalari & Abdulla Qodiriy. Diyori bakr & To`la asarlar to`plami. 6 jildlik 1-jild. Xurshid Davron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz/>
5. Каримов Н. XXаср адабиёти манзаралари. Т: Ўзбекистон, 2008.